


SHERZOD YOVQOCHEV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGI ISTIQBOLLARI

MONOGRAFIYA



0X0000041729

55.000.110.017
y - 13


**OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

SHERZOD YOVQOCHEV

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI
BILAN HAMKORLIGI ISTIQBOLLARI**

MONOGRAFIYA



**"TAFAKKUR" NASHRIYOTI
TOSHKENT - 2020**

KBK: 65.497(50')

UO'K: 33:001(575.1)

Yo-13

Sh. Sh. Yovqochev.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligi istiqbollari [Matn] Monografiya / Sh.Sh. Yovqochev. Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2020. – 208 b.

Ma'sul tahrirchi:

T.S. RASULOV – iqtisod fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Sh.J. Ermamatov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

N.B. Xolmatov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Monografiyada zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida Xalqaro moliya institutlarining mohiyati, rivojlanish xususiyatlari va jahon iqtisodiyoti arxitekturasidagi o'rni atroflicha yoritilgan. Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy faoliyati, huquqiy-normativ jihatlar va o'zaro hamkorlikda samaradorlik tahlil etilgan.

Ish doktorantlar, vazirliklar va idoralar mutaxassislariga mo'ljallangan. Bundan talabalar, magistrlar, malaka oshirish markazi (instituti) tinglovchilari, professor-o'qituvchilar foydalanishlari mumkin.

Kitob Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Ilmiy-metodik kengashi tomonidan 2020 yil 2-mart kuni muhokama qilingan va chop etishga tavsiya etilgan. (bayonnomasi № 7- 2020).

ISBN: 978-9943-24-334-7

© Sh. Sh. Yovqochev, 2020.

© "Tafakkur" nashriyoti, 2020.

MUNDARIJA

Shartli belgilar va atamalar ro'yxati.....	4
Kirish	6

I BOB. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY JIHA TLARI

§ 1.1. Xalqaro moliya institutlari faoliyatining zamonaviy xususiyatlari.....	9
§ 1.2. Xalqaro moliya institutlari moliyaviy mahsulotlarining shakllari va taqsimlash jihatlari	32
§ 1.3. Xalqaro moliya institutlari mintaqaviy hamkorligining zamonaviy tendensiyalari.....	48

II BOB. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI IQTISODIY FAOLIYATI TAHLILI VA MUAMMOLARI

§ 2.1. Xalqaro moliya institutlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning me'yoriy-huquqiy asoslari ..	69
§ 2.2. Xalqaro moliya institutlarining O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiy faoliyati tahlili.....	80
§ 2.3. Xalqaro moliya institutlari va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hamkorligi doirasidagi muammolar	101

III BOB. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING O'ZARO IQTISODIY HAMKORLIGI ISTIQBOLLARI

3.1. O'zbekiston Respublikasi hamda Jahon banki guruhing o'zaro iqtisodiy hamkorligi istiqbollari.....	117
3.2. O'zbekiston Respublikasi va Osiyo taraqqiyot bankining hamkorligi istiqbollari.....	130
3.3. Islom taraqqiyot banki va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik munosabatlarning istiqbollari	144
Xulosa	157
Ilovalar	161
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	181

SHARTLI BELGILAR VA ATAMALAR RO'YXATI

ADF	Osiyo taraqqiyot fondi (ingliz. Asian Development Fund, ADF)
AKT	Axborot-kommunikatsiya tizimi (ingliz. Information-communication technologies, ICT)
ALA	Osiyo va Lotin Amerika (ingliz. Asia and Latin America, ALA)
AQSh	Amerika Qo'shma Shtatlari (ingliz. The United States of America, USA)
BMT	Birlashgan Millatlar Tashkiloti (ingliz. The United Nations, UN)
CAREC	Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiy hamkorlik (ingliz. Central Asia Regional Economic Cooperation, CAREC)
ECA	Yevropa va Markaziy Osiyo (ingliz. Europa and Central Asia, ECA)
G20	Yigirmatalik guruhi (ingliz. Group twenty)
GNI	Yalpi milliy daromad (ingliz. Gross National Income, GNI)
ICD	Xususiy sektorni rivojlantiruvchi islom korporatsiyasi (ingliz. Islamic Corporation for the Development of the Private Sector, ICD)
ICIEC	Eksport kreditlari va investitsiyalarni sug'urtalovchi islom korporatsiyasi (ingliz. Islamic Corporation for the Insurance of Investment and Export Credit, ICIEC)
ICSID	Investitsion kelishmovchiliklarni tartibga solish xalqaro markazi (ingliz. International Centre for Settlement of Investment Disputes, ICSID)
ITFC	Xalqaro islom savdo va moliya korporatsiyasi (ingliz. International Islamic Trade Finance Corporation, ITFC)
ITB	Islom taraqqiyot banki (ingliz. Islamic Development Bank, IDB)
IRO	Iqtisodiy "risk"lardan ogohlantirish (ingliz. Early Warning Exercise, EWE)
IRTI	Islom tadqiqot va o'quv instituti (ingliz. Islamic Research and Training Institute, IRTI)

JRI	Jahon Rivojlanish indikatorlari (ingliz. World Development Indicators, WDI)
MENA	Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (ingliz. Middle East and North Africa, MENA)
MIGA	Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlovchi agentlik (ingliz. Multilateral Investment Guarantee Agency, MIGA)
MSBD	Moliyaviy sektorni baholash dasturida (ingliz. Financial Sector Assessment Program, FSAP)
OCR	Oddiy kapital resurslari (ingliz. Ordinary Capital Resources, OCR)
OTB	Osiyo taraqqiyot banki (ingliz. Asian Development Bank, ADB)
OTO	Osiyo va Tinch okeani (ingliz. Asia and Pasific ocean)
SDR	Maxsus qarz olish huquqlari (ingliz. Special drawing rights)
SSA	Afrikaning Sahroyi kabir mamlakatlari (Markaziy Afrika) (ingliz. Sub-Saharan Africa, SSA)
TMK	Trans milliy korporatsiya (ingliz. Transnational corporation, TNC)
XMI	Xalqaro moliya institutlari (ingliz. International financial institutions, IFI)
XMK	Xalqaro moliya korporatsiyasi (ingliz. International Finance Corporation, IFC)
XTA	Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (ingliz. International Development Association, IDA)
XTB	Xalqaro taraqqiyot banklari (ingliz. International development bank, IDB)
XTTB	Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (ingliz. International bank for reconstruction and development, IBRD)
XVF	Xalqaro valyuta fondi (ingliz. International monetary fund, IMF)
XXR	Xitoy Xalq Respublikasi (ingliz. People's Republic of China, PRC)
WB	Jahon banki guruhi (ingliz. The World Bank Group, WB)

KIRISH

XXI asr mamlakatlar va xalqlarning o'zaro yaqinlashuv tendensiyasi, bilimlar hamda texnologik yutuqlarining intensiv almashinuv jarayonlari bilan kuzatilmoqda. Bunda sanoat ishlab chiqarishi va kapitalning baynalminallashuvi, milliy xo'jaliklarning o'zaro ta'sirining sezilarli darajada ortishi, turli mamlakatlarda ishbilarmonlik konyukturasi darajasi ortishi, uzoq muddatli va resurslarga talabning kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlar majmui muammollarini birgalikda yechim topish zarurati bilan tavsiflanadi.

Qolaversa, jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlarning institutsional boshqaruv tizimini shakllantirishda, jahon xo'jaligi ishtirokchilarining birlari bilan o'zaro iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va boshqa sohalarda samarali xalqaro aloqalar olib borish uchun ham aynan xalqaro moliya institutlarining o'rni muhim hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarda xalqaro moliya institutlari davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ko'prigi hisoblanadi. Ularning tashkil etilishi esa, o'z navbatida, jahon hamjamiyati baynalminallashuvining obyektiv tendensiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro moliya institutlari xalqaro moliya tizimining institutsional birliklari sifatida, jahon xo'jaligi aloqalarining mustahkamlanishi va mamlakatlarning xalqaro valyuta-kredit aloqalarining rivojlanishida poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Salmoqli moliyaviy resurslarga ega bo'lgan mazkur moliya institutlari jahon

xo'jaligidagi mintaqa va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlariga sezilarli ravishda ta'sir o'tkazib kelmoqda.

Jahon xo'jaligining globallashuvi va milliy iqtisodiyotlarning transformatsiyalashuvi jarayonlarida xalqaro moliya institutlari tomonidan taklif etilayotgan moliya mahsulotlarining mohiyati chuqur o'rganilishi, a'zo-mamlakatlarning ulardan foydalanishi hamda asoslangan qaror qabul qilishlarida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o'zaro iqtisodiy hamkorlik doirasida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarining samardorligini ta'minlashda ham xalqaro moliya institutlarining moliyaviy mahsulotlarining nazariy va metodologik jihatdan tahlil etilishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirishi mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va investitsion salohiyati yuksalishida poydevor sifatida xizmat qiladi. Chunki, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va mavjudlarini qayta takomillashtirish orqali iqtisodiyotni jadal rivojlantirish mumkin. Bunday ijobiy natijalar esa, o'z navbatida ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan sohalarni moliyalashtirish va ulardagi muammolarni tizimli hal etishga ko'maklashadi.

Hozirgi kunga kelib, xalqaro moliya institutlari mamlakatimiz infratuzilmasi, sanoati va iqtisodiyotining real sektorlarini moliyalashtirishda faol ishtirok etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi nufuzli - Jahon banki guruhi, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot banki singari xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik davrlarida xalqaro loyihalarni amalga oshirish borasida yetarli darajada tajribaga ega bo'ldi. Shu nuqtai

nazardan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliya institutlari bilan iqtisodiy faoliyatining zamonaviy xususiyatlarini o'rganish va istiqboldagi hamkorlik vektorlarini takomillashtirish dozlarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida, Harakatlar strategiyasi davlat dasturida keltirib o'tilgan, "Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o'ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish" vazifasi bilan chambarchas bog'liq.¹

Mamlakatimizning xaqqlaro moliya institutlari bilan o'zaro iqtisodiy hamkorligini takomillashtirish jarayoni ko'p qirrali hamda yagona yo'nalish ishlab chiqilishi murakkab bo'lgan turli iqtisodiy fikr va mulohazalar bilan tavsiflanadigan jarayon hisoblanadi. Shuning uchun, milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi jarayonlarida xalqaro moliya institutlari singari jahon xo'jaligi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlari barqarorligini ta'minlovchi, moliyaviy resurs ajratuvchi, sohaviy rivojlanish uchun texnik-konsultativ yordam ko'rsatuvchi xalqaro institutsional birliklari faoliyatining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.02.2017 dagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantrish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947 sonli farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son

I BOB. XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY JIHATLARI

§ 1.1. Xalqaro moliya institutlari faoliyatining zamonaviy xususiyatlari


XXI asr bo'sag'asida insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishi mamlakatlar va xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi, planetar miqyosdagi yagona iqtisodiy va axborot makonining vujudga kelishi hamda ilm-fan yutuqlarining intensiv almashinuv jarayonlari kuzatila boshlandi. Dunyo mamlakatlarning ishlab chiqarish kuchlari, moliyaviy resurslari va tarmoq xo'jaliklarining o'zaro bir-biriga ta'siri sezilarli darajada ortmoqda. Xalqaro moliyaviy va iqtisodiy munosabatlar tizimida bunday jarayonlarning kuzatilishi jahon xo'jaligi davlatlararo tartibga solish mexanizmining shakllantirilishini talab etdi.

Jahon xo'jaligi ishtirokchilarining bir-birlari bilan o'zaro iqtisodiy, siyosiy, ilmiy va boshqa sohalarda uzviy bog'langan bo'lib, ular o'rtasida samarali xalqaro aloqalar olib borish uchun ham xalqaro moliya institutlari kerak bo'ladi. Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarda, aynan xalqaro moliya institutlari, davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik ko'prigi hisoblanadi. Ularning tashkil etilishi esa, o'z navbatida jahon hamjamiyati baynalminallashuvining obyektiv tendensiyasi sifatida namoyon bo'ldi.

Xalqaro moliya institutlari xalqaro moliya tizimining institutsional birliklari sifatida, jahon xo'jaligi aloqalarining mustahkamlanishi va mamlakatlarning xalqaro valyuta-kredit aloqalarining rivojlanishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, salmoqli

moliyaviy resurslarga ega bo'lgan mazkur moliya institutlari, jahon xo'jaligidagi mintaqa va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitlariga sezilarli ta'sir o'tkazadi.

Mazkur institutlar termini to'g'risidagi ilmiy fikr va mulohazalar ko'plab olimlarning ilmiy ishlarida aks ettirilgan (1.1.1-rasmga qarang).



1.1.1-rasm. Xalqaro moliya institutlariga keltirilgan ta'riflar.

Yuqoridagi 1.1.1-rasm, iqtisodchi va huquqshunos olimlarning xalqaro moliya institutlari terminiga bildirgan ilmiy mulohazalariga bag'ishlanadi. Jahon banki guruhining bosh texnik maslahatchisi va iqtisod fanlari doktori Bhargava Vinay, xalqaro moliya

institutlarini, moliyaviy yordam va professional maslahat berishiga urg'u bergan.² Xalqaro tadqiqotlar dasturi direktori va siyosiy fanlar professori Ian Hurd esa, konseptual va huquqiy maydonda faoliyat olib borishini ta'kidlagan.³ O'zbek olimi J.X. Ataniyazov fikricha, ular moliya va valyuta-kredit munosabatlarini tartibga soladi.⁴ Rus olimi E.F. Avdokushin ilmiy ishlarida, ma'lum masalalarni yechish uchun moliyaviy resurslarni birlashtirishini ta'kidlagan.⁵ Maks Plank nomli ilmiy tadqiqotlar institutining xalqaro huquq ensiklopediyasida esa, dunyodagi mojarolarga javoban, rivojlanish va iqtisodiy hamkorlik tizimini yaratish uchun tashkil etilganiga urg'u berilgan.⁶

Xalqaro moliya institutlari turli soha masalalarini yechish maqsadida a'zo-mamlakatlar kapitallarining birlashuvi orqali tashkil etiladi. Shu jumladan, jahon iqtisodiyoti muvozanati va tartibga solish maqsadida xalqaro valyuta va fond bozorlaridagi moliyaviy operatsiyalar; xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash; to'lov balansi defitsitini kamaytirish; davlatlarning mintaqa va soha rivojlanish dasturlarini kreditlash hamda kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish; infratuzilma, axborot texnologiyalari, transport va aloqa sohalaridagi xalqaro dasturlarni moliyalashtirish;

² Bhargava Vinay. The role of the international financial institutions in addressing global issues. Global issues for global citizens: an introduction to key development challenges. - Washington, DC: World Bank- 2006,-P. 393-394.

³ Ian Hurd. International Organizations: Politics, Law, Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2011. -282 pp.

⁴ J.X. Ataniyazov, E.D. Alimardonov. Xalqaro moliya munosabatlari: darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,- Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2014.-432 b.

⁵ Авдокушин Е.Ф., Аникеева-Науменко Л.О. Международные валютно-кредитные отношения: Учебное пособие.-М.:МГУПС (МИИТ), 2015.- 89 с.

⁶ The Max Planck Encyclopedia of Public International Law. 10 vols. Edited By Ruüdiger Wolfrum. Oxford, New York: Oxford University Press, 2012.-Pp. 12 000.